

XIII. DEMOGRAFIYA

Doimiy aholi soni

Qashqadaryo viloyatining doimiy aholisi soni 2024- yil 1- aprel holatiga 3 577,0 ming kishini tashkil etib, 2024- yil boshidan 16,4 ming kishiga ya'ni 2,2 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1 530,5 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 42,8 %), qishloq aholisi soni 2 046,5 ming kishini (57,2 %) tashkil etdi.

E'tibor bering:

2024- yil yanvar-mart oylarida

- Aholi soni **16,4 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **21,5 ming nafarni** tashkil etdi.
- Vafot etganlar soni **3,6 ming nafarni** tashkil etdi.
- Nikohlar soni **5,5 ming nafarni** tashkil etdi.
- Ajrimlar soni **0,8 ming nafarni** tashkil etdi

2024- yilning yanvar-mart oylarida

Yil boshida
doimiy aholi soni
3 560 633 kishi
(2024- yil 1- yanvar holatiga)



21,5 *ming bola*

Tug'ilganlar soni



3,6 *ming kishi*

O'lganlar soni



3,0 *ming kishi*

Ko'chib kelganlar soni



4,5 *ming kishi*

Ko'chib ketganlar soni

Doimiy aholi soni

3 576 956 kishi

(2024- yilning 1- aprel holatiga)

Qashqadaryo viloyati bo'yicha doimiy aholi soni¹⁾ (2024- yilning 1- aprel holatiga, ming kishi)

	Jami aholi	shu jumladan:	
		shahar aholisi	qishloq aholisi
Qashqadaryo viloyati	3 577,0	1 530,5	2 046,5
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	297,0	297,0	-
Shahrisabz sh.	147,8	147,8	-
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	223,3	52,6	170,7
Dehqonobod	160,3	30,5	129,8
Qamashi	294,5	70,0	224,5
Qarshi	273,7	99,2	174,5
Koson	313,6	164,8	148,8
Kitob	283,0	105,3	177,7
Mirishkor	130,0	48,9	81,1
Muborak	93,8	74,6	19,2
Nishon	167,5	100,4	67,1
Kasbi	213,9	82,7	131,2
Ko'kdala	189,9	29,8	160,1
Chiroqchi	269,3	77,5	191,8
Shahrisabz	235,8	56,9	178,9
Yakkabog'	283,6	92,5	191,1

¹⁾ dastlabki ma'lumot

Qashqadaryo viloyati bo'yicha doimiy aholi soni
(1- aprel holatiga ming kishi)

	2023- y.	2024- y.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati % da
Qashqadaryo viloyati	3 498,9	3 577,0	102,2
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	290,3	297,0	102,3
Shahrisabz sh.	145,2	147,8	101,8
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	218,4	223,3	102,2
Dehqonobod	157,0	160,3	102,1
Qamashi	288,2	294,5	102,2
Qarshi	267,1	273,7	102,5
Koson	306,4	313,6	102,3
Kitob	277,4	283,0	102,0
Mirishkor	127,3	130,0	102,1
Muborak	92,2	93,8	101,7
Nishon	163,5	167,5	102,4
Kasbi	209,3	213,9	102,2
Ko'kdala	184,6	189,9	102,9
Chiroqchi	262,2	269,3	102,7
Shahrisabz	231,8	235,8	101,7
Yakkabog'	278,0	283,6	102,0


Yanvar-mart oylarida aholining tabiiy harakati

	kishi			har 1000 kishiga nisbatan promille	
	2023- y.	2024- y. ¹⁾	o'lish, kamayish	2023- y.	2024- y. ²⁾
Tug'ilganlar	22 263	21 478	-785	25,9	24,2
O'lganlar	3 842	3 650	-192	4,5	4,1
Tabiiy o'lish	18 421	17 828	-593	21,4	20,1
Nikohlar	5 573	5 542	-31	6,5	6,2
Ajralishlar	926	845	-81	1,1	1,0

Tug'ilish darajasi. 2024- yilning yanvar-mart oylarida tug'ilganlar soni 21 478 kishini tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga (22 263 kishi) nisbatan 785 kishiga kamaydi. Tug'ilish koeffitsienti mos ravishda 24,2 promilleni tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga (25,9 promille) nisbatan 1,7 promillega kamaydi.

Aholining tabiiy harakati koeffitsientlari

(yanvar-mart oylarida) (1000 aholi soniga nisbatan promille)



¹⁾ dastlabki ma'lumot

²⁾ dastlabki ma'lumot


Tug'ilish darajasining ko'payishi viloyatning deyarli barcha hududlarida qayd etildi. Bu ko'rsatkichning yuqori darajasi Muborak tumanida 23,8 dan 24,2 promillega va G'uzor tumanida 26,7 dan 27,2 promillega ko'payishi kuzatilgan.

Tug'ilish. 2024- yilning yanvar-mart oylarida 21,5 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va keyinchalik tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan) mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsienti 24,2 promilleni tashkil etdi hamda 2023- yilning mos davriga nisbatan 1,7 promillega kamayganligi (2023- yilning yanvar-mart oylarida 25,9 promille bo'lgan) kuzatildi.

Ma'lumot uchun


Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati **22 hafta** va undan ortiq, bolaning bo'yi **25 sm** va undan ortiq, vazni **500 gramm** va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsienti (2024- yilning yanvar-mart oylarida)




O'lim darajasi. 2024- yilning yanvar-mart oylarida o'lganlar soni 3 650 kishini tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga (3 842 kishi) nisbatan 192 kishiga yoki 95,0 foizga kamaydi. Mos ravishda o'lim koeffitsienti 4,1 promilleni tashkil qildi (2023- yilning yanvar-mart oylarida 4,5 promille).

2024- yilning yanvar-mart oylarida asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan foiz hisobida)



O'lim koeffitsientlari




O'lim ko'rsatkichlarining yuqori darajasi Shahrisabzda (4,0 dan 4,3 promillega), Qamashida (3,3 dan 3,8 promillega) ko'payishi kuzatilgan.

Nikoh. 2024- yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 5,5 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 6,2 promilleni tashkil etdi.




Tumanlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti



(2024- yilning yanvar-mart oylari holatiga 1 000 aholiga nisbatan promille)

Nikohdan ajralishlar. 2024- yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,8 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 1,0 promilleni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti
(2024- yilning yanvar-mart oylari holatiga)






Nikohlar va ajralishlar. 2024- yilning yanvar-mart oylari FHDYO organlarida 5 542 ta nikohlar va 845 ta ajralishlar ro'yxatga olingan. Ming aholiga nisbatan 6,2 ta nikoh (2023- yilning tegishli davrida 6,5 ta) va 1,0 ta ajralishlar (2023- yilning tegishli davrida 1,1 ta) to'g'ri kelgan.

Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni
(yanvar-mart oylarida, birlik)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2023- y.</i>	<i>2024- y.</i>	<i>2023- y.</i>	<i>2024- y.</i>
Qashqadaryo viloyati	5 573	5 542	926	845
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi sh.	448	372	113	118
Shahrisabz sh.	219	199	66	58
<i>tumanlar:</i>				
G'uzor	316	314	40	43
Dehqonobod	183	214	30	26
Qamashi	471	434	62	59
Qarshi	416	411	77	69
Koson	452	481	52	56
Kitob	470	489	69	66
Mirishkor	212	216	23	12
Muborak	133	115	17	37
Nishon	251	257	50	35
Kasbi	331	316	52	42
Ko'kdala	304	323	23	22
Chiroqchi	424	437	67	58
Shahrisabz	490	527	66	68
Yakkabog'	453	437	119	76

Migratsiya¹ (Ichki va tashqi). Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2024- yilning yanvar-mart oylarida Viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 2 976 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 4 481 kishini tashkil qilgan.

Aholi migratsiyasi (kishi)


		2023- yilning yanvar-mart oylarida	2024- yilning yanvar-mart oylarida
	Ko'chib kelganlar	2 239	2 976
	Ko'chib ketganlar	4 063	4 481
	Migratsiya saldosi	-1 824	-1 505

2024- yilning yanvar-mart oylarida migratsiya qoldig'i minus 1 505 kishiga (2023- yilning shu davrida minus 1 824 kishi) teng bo'ldi. Eng katta minus qoldiqlar Qamashi (minus 259), Kitob (minus 245) va G'uzor (minus 180) tumanlarida kuzatilgan.


Yanvar-mart oylarida

Soni, *ming kishi*

Ko'chib kelganlar



Ko'chib ketganlar



¹ shahar va tumanlar hamda hududlararo ichki migratsiyani qo'shgan holda
² dastlabki ma'lumot






Viloyat markazidagi demografik holat

Qashqadaryo viloyati markazi Qarshi shahrining doimiy aholisi soni 2024- yil 1- aprel holatiga 297,0 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 1,4 ming kishiga yoki 0,5 % ga o'sgan.

Qarshi shahri aholisi tabiiy harakati (1 000 aholiga nisbatan promille)

2023- yilning yanvar-mart oylarida	2024- yilning yanvar-mart oylarida
Tug'ilish	
1,8	1,7



2024- yilning yanvar-mart oylarida 1,7 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1 000 aholiga nisbatan 22,9 promilleni tashkil etdi (2023- yilning mos davrida 25,2 promille bo'lgan).

FHDYO organlarida 2024- yilning yanvar- mart oylarida 372 ta nikoh va 118 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan.

Shuningdek, 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 5,0 promilleni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan kamaygan. (2023- yilning mos davrida 6,3 promille bo'lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1 000 aholiga nisbatan 1,6 promilleni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan teng. 2023- yilning mos davrida 1,6 promille bo'lgan.

Qarshi shahrida tuzilgan nikoh va ajrim (yanvar-mart holatiga 1 000 aholiga nisbatan promille)

